

**AGRESSIYA PAYDO BO‘LISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI**

Sharafitdinov Abdulla XXX

O‘zMU Jizzax filiali Oila psixologiyasi kafedrası assistenti

sharafitdinovabdulla@gmail.com

Abdullayeva Nigina Avaz qizi

O‘zMU Jizzax filiali Oila psixologiyasi yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tajovuzkorlik shakllanishiga ta‘sir etuvchi psixologik omillar va agressivlik darajalari ochib berishga harakat qilingan. Shaxs xulq-atvorining o‘zaro munosabatlarda namoyon bo‘lishining emperik jihatlari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Agressiya, frustratsiya, affekt, agressiv xulq-atvor, agressiv odatlar, ehtiyoj, anglanilmagan mayllar.

Agressiya- bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, agressiya ulkan tortishish kuchi va yuqumlilik xususiyatiga ega – ko‘pchilik o‘zining agressiv ekanini inkor etadi, ammo o‘zining kundalik hayotida esa, uni keng namoyish qiladi. Aynan agressiv xulq-atvor shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga va ularni hal etishning asossiz yo‘llari paydo bo‘lishiga olib keladi.[1]

Insonlardagi shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘luvchi xulq-atvor tiplaridan biri agressiyadir. “Agressiya” tushunchasiga izoh berish qator qiyinchiliklarni tug‘diradi, chunki bu atama ko‘plab xatti-harakat shakllarini ifodalaydi. Odamlar biron kimsani agressiv shaxs sifatida tavsiflaganlarida, uni boshqalarni haqorat qiluvchi yoki badfe‘l, barcha narsani o‘zi istaganidek qilishni istaydigan yoki o‘z g‘oyalarini qat‘iy himoya qiladigan, yechimi yo‘q muammolar girdobiga o‘zini giriftor qiladigan inson kabi ta‘riflarni keltirishlari mumkin.

Insonning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan dastlabki nuqtai nazarlar ichida U.Makdugall, Z.Freyd, G.Marrey va boshqa olimlarning “inson va hayvonlarda agressiyaning tug‘ma instinkti mavjud bo‘ladi”, degan qarashlaridir. Agressiv xulq-atvor haqidagi fikr-mulohazalar XX asrning boshlarida frustratsiya nazariyasi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keldi. Unga ko‘ra, agressivlik frustratsiyaning oqibatidir.[1-3-4]

Bunday qarashni birinchi bo‘lib J. Dollard ilgari surdi. Ammo, ushbu ikki xil nuqtai nazar ham amaliyotda o‘z tasdig‘ini topmadi.

Agressiv xulq-atvor xususidagi yana bir nuqtai nazar L.Berkovichning ijtimoiy bilish nazariyasida bayon qilingan. Unga ko‘ra, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to‘siq shaxsda agressiv xatti-harakatlarni hosil qiladi. Nihoyat, agressiv

xulq-atvorning kelib chiqish sabablari haqidagi eng zamonaviy nuqtai nazar bilishning kognitiv nazariyasi bilan bog'liq holda ifodalanadi. Bu konsepsiyada agressiv harakatlar quyidagi jarayonlarning natijalari sifatida baholanadi:

1. Sub'yektning o'z agressiv xulq-atvorini ijobiy deb baholashi;
2. Frustratsiyaning mavjudligi;
3. Affekt yoki stress tipidagi emotsional qo'zg'alishning kuchliligi.[5-6]

R. Kratchfeld va N. Livson agressiyaning bir-birini inkor etmaydigan va birday maqbul ikki tavsifini keltirganlar. *Birinchisi*, xulq-atvorning zohiriy (tashqi) alomatlariga asoslanadi: "Agressiya – kimgadir ziyon yetkazuvchi xulq-atvorning har qanday ko'rinishidir". *Ikkinchisi*, odamning botiniy (niyatlari) bilan bog'liq, ya'ni insonni harakatga undovchi kuchlar bilan mushtarak: "Agressiya – boshqa bir insonga ziyon yetkazishni maqsad qilib olgan har qanday xatti-harakatdir". Agressiyaning yuqorida zikr etilgan tavsiflariga monand tushunchalarga tayangan ko'plab psixologlar agressiyani mavjudotning yashash uchun kurash bilan bog'liq uzviy xususiyati deb hisoblaydilar.

D. Bass taklif etgan ta'riflardan biriga ko'ra, boshqalar uchun xavf tug'diruvchi va ularga ziyon yetkazuvchi har qanday fe'l-atvor agressiyadir.[7]

Shaxsning agressiv xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi boshqa xususiyat - uning frustratsiyani o'tkazish qobiliyati. Ma'lum bo'lishicha, frustratsiya - bu maqsad yoki ehtiyojini qoniqtirishi yo'lidagi to'sqinlikdan kelib chiqqan holat. Ba'zi bir mualliflar frustratsiyani - agressiv xulq-atvorning yetakchi sabablaridan biri deb hisoblaydilar.

Bandura tajovuzkor xulqni tahlil qilishda quyidagi uchta jihatni hisobga olgan:

1. Mazkur harakatlarni o'zlashtirish usullari;
2. Uni yuzaga keltiruvchi omillar;
3. Ular mustahkamlanadigan sharoitlar.[8-9]

Shu boisdan, eng katta ahamiyat bolalarga tajovuzkorlikni o'rganishga, ijtimoiylashuvning birlamchi vositachilari, aniqrog'i ota-onalarning ta'siriga

qaratiladi. Xususan, ota-onalarning xulq-atvorlari tajovuzkorlik modeli vazifasini o'tashi va agressiv ota-onalarning bolalarida ham agressivlik kuzatilishi isbotlandi. Shuningdek, ushbu yondashuv namoyondalari keng diapozandagi tajovuzkor reaksiyaning inson tomonidan o'zlashtirilishi - ushbu xulqni to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantirishga kiradi. Ya'ni, tajovuzkor xatti-harakatning mustahkamlanishi mazkur xatti-harakatning keyinchalik ham takrorlanish ehtimolini oshiradi. Shuningdek, natija keltiradigan tajovuzkorlik, ya'ni tajovuzkor xulqning qo'llanilishi oqibatida muvaffaqiyatga erishish ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Shubhasiz, me'yoridagi agressiya himoyalaniş xarakteriga ega va hayot kechirish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, insonning ijodiy potentsiali va yutuqlarga intilishida faollik manbai sifatida ko'rinadi. Shaxs agressiyasining turli namoyishlarini, agressiyani ijtimoiy ta'qiqlanmagan shakllarida namoyish eta olishi va nihoyat o'zi va boshqalar ustidan zo'ravonlikdan qochishni o'rganib olishi zarur va majburdir. Shaxsiy agressiyasining taqdiri -

har bir katta yoshli insonning shaxsiy tanlash huquqi, biroq agressiyani egallab olishi - umuman olganda eng murakkab psixologik vazifalardan biri hisoblanadi.[10-11]

Biz tajovuz holatini aniqlashda kichik empirik ishimizda quyidagi natijaga erishdik.

Tavsiflovchi statistika

| Ko'rsatgichlar     | N  | Minimal | Maksimal | O'rtacha qiymat | Standart og'ish | Assimetriya | Ekses  |
|--------------------|----|---------|----------|-----------------|-----------------|-------------|--------|
| Jismoniy tajavvuz  | 40 | 22,00   | 77,00    | 49,5000         | 15,35561        | ,208        | -,792  |
| bilvosita tajavvuz | 40 | 16,00   | 96,00    | 52,6500         | 16,17936        | ,297        | ,798   |
| tajanglik          | 40 | 26,00   | 91,00    | 56,2500         | 18,14154        | ,094        | -,622  |
| negativizm         | 40 | 20,00   | 100,00   | 57,4750         | 24,90288        | ,165        | -,839  |
| Xafagarchilik      | 40 | 18,00   | 81,00    | 50,8500         | 16,11903        | -,061       | -1,096 |
| Shubhalanuvchanlik | 40 | 22,00   | 88,00    | 56,1000         | 13,82454        | -,034       | ,055   |
| Verbal tajavvuz    | 40 | 13,00   | 78,00    | 50,1750         | 17,29812        | -,180       | -,528  |
| Aybdorlik hissi    | 40 | 44,00   | 99,00    | 72,0500         | 14,72648        | -,450       | -,644  |

O'tkazilgan tadqiqotimizda Xafagarchilik tipiga ko'ra minimal 18 ballni, maksimal 81 ballni, o'rtacha qiymat 50,85ni, standart og'ish esa 16,12ballni tashkil etgan . 50,85 +- 16,12. Bilvosita tajavvuz tipiga ko'ra sinaluvchilarimizning aksariyatida bilvosita tajavvuz tipiga ko'ra aksentuatsiya yuqori ekanligini aniqladik. A=-0,061 ga teng . Ushbu tipga ko'ra assimetriya ya'ni yuqori va quyi ballarning kam uchraganligini aniqladik. E= -1,096 ga teng ya'ni ushbu tipga ko'ra bir xi ballarning takrorlanishi meyorda ekanligini aniqladik.

Kolmogorov- Smirnov mezon

| Ko'rsatgichlar     | O'rtacha qiymat | Standart og'ish | Kolmogorov-Smirnov Z | Ishonch darajasi |
|--------------------|-----------------|-----------------|----------------------|------------------|
| Jismoniy tajavvuz  | 49,5000         | 15,35561        | 1,043                | ,227             |
| bilvosita tajavvuz | 52,6500         | 16,17936        | ,895                 | ,400             |
| tajanglik          | 56,2500         | 18,14154        | 1,013                | ,256             |
| negativizm         | 57,4750         | 24,90288        | 1,010                | ,260             |
| Xafagarchilik      | 50,8500         | 16,11903        | 1,104                | ,175             |
| shubhalanuvchanlik | 56,1000         | 13,82454        | ,991                 | ,280             |
| Verbal tajavvuz    | 50,1750         | 17,29812        | 1,214                | ,105             |
| Aybdorlik hissi    | 72,0500         | 14,72648        | 1,307                | ,066             |

O'tkazilayotgan tadqiqotimizda barcha shkalalar normal taqsimlanish qonuniga mos ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ishlarimizni parametrik mezonlarda olib boramiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Шарафитдинов А. и др. Проблема застенчивости у ребенка и ее устранение //Образование и воспитание. –2020. –No. 2. –С. 64-66.
2. Шарафитдинов А. и др. Формирование у учеников чувства общности //Образование и воспитание. –2020. –No. 2. –С. 66-67
3. Маджидов Дж Б, Маджидова В, Шарофиддинов А . Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. страницы: 22-24 источник: актуальные вопросы современной психологии материалы международной научной конференции. 2017
4. Abdulla, S. (2022, March). THE ROLE OF FAMILY IN THE FORMATION OF LEARNING MOTIVATION FOR ADOLESCENTS. In Conference Zone (pp. 286-288).
5. Sharafitdinov Abdulla XXX, Soyimnazarov Navro‘zbek Baxtiyor ugli, Nishonov Muhammadali Narimon ugli. Characteristics of Emotional Intelligence in Managers Volume: 01Issue: 10|Oct–2022
6. XXX S. A. et al. PSYCHOLOGICAL DESCRIPTION OF THE CONCEPT OF EMOTIONAL INTELLIGENCE //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 7. – C. 71-75.
7. XXX, Sharafitdinov Abdulla. "CHARACTERISTICS OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN MANAGERS." European Journal of Interdisciplinary Research and Development 8 (2022): 22-25.
8. XXX, Sharafitdinov Abdulla. "Scientific-Theoretical Psychological Analysis of Personal Activity Motivation." Zien Journal of Social Sciences and Humanities 14 (2022): 72-75.
9. Ustin Pavel Nikolaevich, Sharafitdinov Abdulla XXX, & Yusupov Umidjon Salim Salim ugli. (2022). Emotional Intelligence and its Adolescents Being an Exemplary. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 15, 139–145. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/2963>
10. Rahmatullayeva, M., & Ahmedova, L. (2023). GO ‘DAKLIK DAVRI TO ‘G ‘RISIDA PEDAGOGIK ILMIY DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
11. Rahmatullayeva, M. (2021). O ‘QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO ‘NALISHLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(4).